



TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH SOHALARI

Gulshad Sarsenbaeva

Qoraqalpoq davlat universiteti
Sanoat texnologiyasi fakulteti

Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini
ishlash va texnologiyasi (to'qima) yo'nalishi
2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8333510>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 03-September 2023 yil
Ma'qullandi: 06-September 2023 yil
Nashr qilindi: 11-September 2023 yil

KEY WORDS

*to'qimachilik, yengil sanoat,
to'quvchilik, ipak, tabiiy iplar, ipak
tolasi, qayta o'rash.*

ABSTRACT

Mazkur maqolada to'qimachilik sanoatining keyingi yillarda O'zbekiston iqtisodiyatida katta ahamiyat kasb etishi, yengil sanoatning Respublikamizda jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biri ekanligi so'z etilgan. Shuningdek, to'qimachilik sanoatining qisqacha tarixi, ipak va ipak tarkibiga to'xtalib o'tilgan.

To'qimachilik sanoati O'zbekiston yengil sanoatining asosiysidir va respublika iqtisodiyotida yetakchi o'rinni egallaydi. Ma'lumki, yengil sanoat mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida, ayniqsa, Prezidentimiz tomonidan mazkur tarmoqqa qaratilayotgan alohida e'tibor tufayli O'zbekiston nafaqat paxta xom ashyosi yetishtiruvchi, balki uni qayta ishlash salohiyati yuksalib borayotgan davlatlar qatoridan joy oldi. Darhaqiqat, Istiqlol yillarida yengil sanoat va to'qimachilik korxonalari texnik hamda texnologik jihatdan modernizatsiya qilinayotgani, yangi quvvatlar muntazam ishga tushirilayotgani zaminimizda yetishtirilgan paxtani o'zimizda qayta ishlash hajmining oshishiga xizmat qilayapti.

To'qimachilik sanoatining yetakchi tarmoqlaridan biri to'quvchilikdir. To'quvchilik, shubhasiz, dunyoda eng qadimgi san'at va hunarlardan biri hisoblanadi. Ibtidoiy odam «tabiiy» mehnat quroli sifatida o'z qo'llaridan foydalana boshlagan, o'z tirikchiligini osonlashtirish yo'llarini izlab, har xil narsalami yaratgan. Bunday ijodning eng oddiy usullaridan biri hayvon terisi tilimlari, o'tlar, qamishlar, chirmoqlar, buta va daraxt novdalarini bir-biriga o'rish bo'lgan. Qadimgi odamlar bu narsalami yonma-yon qo'yib, bir-biriga o'rib chiqaverishgan. Natijada muayyan buyum hosil bo'lgan. To'quvchilikning eng sodda xili — o'rish shu tariqa yuzaga kelgan. Dastlabki kiyim va poyabzallar, patakalar, savat va to'rlar ilk to'quvchilik buyumlari bo'lgan. To'quvchilik yigiruvchilikdan oldin paydo bo'lgan deb hisoblashadi. Odam ba'zi o'simliklarning tolalarini yigirishni o'rganishdan oldin to'qishni bilgan. To'quvchilik buyumlari Misr, Hindiston, Xitoy, Amudaryo va Sir-daryo orasidagi yerlarda, Peru va Meksikada olib borilgan ko'p yillik qazish ishlari natijasida topilgan. Bu buyumlar qadimgi odamlarning yaratishga bo'lgan tabiiy

intilishi tufayli to'quvchilik paydo bo'lganligini va shu bilan birga, u jahonning har xil joylarida bir-biridan mustaqil ravishda vujudga kelganligini tasdiqlaydi.

Ipak tarkibida tabiiy iplar mavjud bo'lib, asosan ipak tolasi bo'lib, ipak qurti ipak ipakning ipak deb ataladigan uzunroq tolaga aylanganida pishgan sekretiya - bu eng qadimgi hayvon tolasi, ipak ip, ipak ip, ipak ip, kassava, ipak va boshqalar. Ipak tolasi amalda qo'llanilgan yagona tabiiy filament tolasi hisoblanadi. Ipak tolasi ipak qurti kabi turli xil oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanadi, shu jumladan, tut ipak tolasi shaklidagi tovuq barglari, oziq-ovqat emanlari tussa ipak tolasining barglari, kassava bargi, tut barglari, kastor barglari boshqa yovvoyi ipak tolalarini hosil qiladi. Mulir ipak tolasi va ipak tolasi ipak tolasi uzun ipak tolasi shaklini klaster tomonidan yaratilgan uzun ipak ipida saqlab turishi mumkin. Teri ipak tolasi va tussa ipak tolasidan tashkil topgan uzun ipak ipida tabiiy ipak iplarining ko'pchiligi hisobga olinadigan eng muhim ipak tolasi uzun ipak ipidir.

Ayni paytda Janubiy Koreya bilan hamkorlikda Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti qoshida zamonaviy O'quv-tadqiqot to'qimachilik texnoparki loyihasi ijrosiga kirishilgan. Ko'zlangan maqsad yurtimizda to'qimachilik tarmog'i taraqqiyotiga olib keluvchi ilg'or texnologiyalarni joriy etish, gazlama va kiyimlarda yangi dizayn yaratish, bo'yash va bezak berish, materialshunoslik bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borish, texnologik "nou-xau"lardan foydalanish, mutaxassislar va ekspertlarni tayyorlashdan iborat. Mazkur loyihaning ishga tushirish muddati 2018-yil sentabr oyiga mo'ljallangan. Yangi loyihalar samarasi o'laroq yurtimizning olis hududlarida o'ttiz mingga yaqin ish o'rni yaratilishi kutilmoqda. Yigiruv, pillakashlik, ip pishitish va kimyoviy zavodlarda ishlab chiqarilgan iplar mato chiqarish korxonalariga turli o'ramalarda keltiriladi. Yigirilgan iplar qog'oz naychalarda yoki bobinalarda, tabiiy ipak kalavada, pishirilgan iplar bobina yoki gardishli g'altaklarda, kimyoviy iplar bobinalarda keltiriladi. Bu o'ramlarni mato ishlab chiqaruvchi mashina va dastgohlarda hamma vaqt ham bevosita o'rnatib bo'lmaydi. Ko'p hollarda mato ishlab chiqarishda, uni eniga qarab katta guruh iplar jamlanib bitta o'rama to'quv, tanda g'altaklarga o'raladi. Bundan tashqari iplarni tayyorlash jarayonlarida sifat nazoratdan o'tib, yaxshilanadi. Ayrim hollarda tayyorlash jarayonida iplarga maxsus ishlov berilib - to'quvchilikda ohorlash, trikotaj va noto'qima matolar ishlab chiqarishda parafinlash va boshqalar keyingi jarayonlarni iqtisodiy samaradorligini oshirishga erishiladi.

Iplarni qayta o'rash. Jarayondan maqsad va unga qo'yiladigan texnologik talablar. Iplarni qayta o'rashdan asosiy maqsad to'qimachilik matolarni ishlab chiqarishni iqtisodiy samaradorligini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash. Qayta o'rash jarayonida ip nazoratidan o'tib nuqsonlari (yo'g'on va ingichka joylari) bartaraf etiladi va turli has cho'plardan tozalanadi. Qayta o'rash natijasida ip sifati yaxshilanib, ulardan sifatli trikotaj va to'qima matolar ishlab chiqariladi. To'qimachilik matolar ishlab chiqarishni yuqori unumli usul va dastgohlarini yaratilishi qayta o'rash jarayoni ahamiyatini yanada oshiradi.

Ip yigirish texnologiyasining taraqqiyot yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Texnologik bosqichlarni qisqartirish, mashinalarni bir biriga agregatlash;
2. Cho'zish asbobi quvvatini oshirib o'timlarni kamaytirish;
3. Urchuqlar tezligini 25000 min-1 gacha yetkazish;
4. Mahsulot sifatini oshirish, ip yo'g'onligi, ravonligi, pishiqligi, tozaligi kabi ko'rsatkichlarni jaxon talablari darajasiga yetkazish.
5. Yangi texnologiyalarni yaratish;

6. Qo'l mehnatini mexanizatsiyalash, robot texnikasini joriy qilish;
7. Xomaki va tayyor maxsulot uramalar hajmini oshirish. Mazkur tadbirlar ilg'or korxonalarda qo'llanilib, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda.

Demak, to'quvchilik tanda va arqoq iplarni tayyorlash jarayonlari, ishlab chiqariladigan mahsulot va xom ashyo turi, keltiriladigan o'rama va mavjud to'quviga bog'liq. Ip gazlamalar ishlab chiqarishga, tanda iplari qayta o'rash tandalash - ohorlash va shoda terish yoki tugun ulash jarayonlardan o'sa, arqoq ipi dastgohni turiga qarab mokili dastgoh uchun, yigiruv naychasidan bobinaga, so'ngra yana bobinadan yog'och naychalarga qayta o'raladi. Mokisiz dastgohlarga esa bobinalarda o'rnatiladi. Shoyi gazlamalar ishlab chiqarishga iplar kalavalarda (xom ipak) yoki gardishli g'altaklarda (pishitilgan ipak) keltiriladi. Tanda iplari to'quvchilikka tayyorlanganda xom ipak tarkibida seritsin (yelim modda) bo'lganligi uchun tabiiy ipak ohorlash jarayonidan o'tmaydi. Ayrim gazlamalar ishlab chiqarish texnologiyasi ko'p o'timli bo'lib, u tanda iplariga badiiy bezak berish bilan bog'liq.

To'qimachilik matolarini ishlab chiqarishda iplarni tayyorlash jarayonlarini to'g'ri tanlash ularni ishini sifatli va yuqori unumli tashkil etish, mahsulot ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini asosiy omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.Sh.Alimboyev, P.S.Siddiqov, B.K.Hasanov, S.S.Rahimxo'jayev, M.R.Yunusxo'jayeva, D.N.Qodirova, To'quvchilik maxsus texnologiyasi va jihozlari, T:-2011.
2. А. Ормирод, Современное пригготовительное и ткацкое оборудование, М., «Легпромбитмиздат», 1979.
3. О. Талавашек, В. Сватий, Бесчелночные ткацкие станки, М., «Легпромбитмиздат», 1985.
4. С. Д. Николаев и др. Теория процессов, технология и оборудование ткацкого производства, М., «Легпромбитмиздат», 1995.
5. E.Sh. Alimboyev, Sh.N. Davirov, O'zbekiston korxonalarining mahsuloti va ularni ishlab chiqarish texnologiyasi, T., 2002.
6. E.Sh. Alimboyev va boshq., Gazlamalarning tuzilishi va tahlili, T., 2003.
7. E.Sh. Alimboyev, To'qima tuzilishi nazariyasi, T., «Aloqachi», 2005.
8. K.K. Nuriyev, O'zaro almashinuvchanlik, metrologiya va standartlashtirish, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, T., 2005.